

Mavzu: Mustaqillik kuni

Aa Ona yurtim – oltin
beshigim.



Vatan – kishilarning tugʻilib oʻsgan joyi, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmuyi.

“**Vatan**” arabcha soʻz boʻlib, dastlab “**yashash joyi**” degan maʼnoni anglatgan. Koʻplab tillarda Vatan “**Ota yurt**” deb atalsa-da, oʻzbek tilida aynan “**Ona yurt**” atamasi ishlatiladi. Bunda inson oʻz Vatani boʻlgan mehr-muhabbatini goʻyo onaga boʻlgan cheksiz hurmat va ehtiromiga qiyoslaydi.



1-mashq. Koʻchiring. Maqollarning maʼnosini izohlang.

1. Vatan qadrini bilmagan, oʻz qadrini bilmas.
2. Ona yurtning omon boʻlsa, rang-roʻying somon boʻlmas.
3. Vatani borning baxti bor.



2-mashq. Sheʼrni ifodali oʻqib maʼnosini izohlang. Soʻroq va his-hayajon gaplarni toping va yozing.

Mustaqillik² ne demak,
Ne demakdir istiqloq?
Buni bilmogʻing kerak,
Maʼnosini dilga sol.

Gʻururing solib dilga,
Tezroq ulgʻay, top kamol.
Erka farzandsan elga,
Senikidir istiqbol!

Jumaniyoz Jabborov



1. Nutq nima?
2. Nutq insonga nima uchun kerak?
3. Insonlarga uzoq masofadan turib muloqot qilishga nima yordam beradi?
4. Nutqning qanday turlari bor?



3-mashq. Bu tushunchalarni nima birlashtirishini ayting.



tinglash



gapirish



o'qish



yozish

- Ayni damda sinfingizda kim nutqning qaysi turidan foydalanyapti?



Og'zaki nutq – nutqning so'zlashuv shakli.



4-mashq. O'qing. Berilgan gaplarda nutqning qaysi turi (og'zaki yoki yozma nutq) qo'llanganini aniqlang.

1. O'qituvchimiz bizga Vatanimizning go'zalligi haqida so'zlab berdi.
2. Diyora sayohati davomida kutubxonaga² qilgan tashrifi haqida dugonasiga gapirib berdi.
3. Akmal chet eldagi do'stiga elektron pochta orqali xat yozdi.
4. Samira hayvonlar haqidagi kitobni katta qiziqish bilan o'qidi.

- Og'zaki nutqni ifodalayotgan gaplarni ko'chiring.





5-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, maqollarni ko'chiring.

1. Ovqatni ... (tuz, so'z, muz) mazali qiladi, odamni – so'z.
2. Til – ... (bosh, jahl, aql) o'lchovi.
3. Yaxshi so'z – yurakka ... (bardam, malham, hamdam), yomon so'z – yurakka g'am.
4. Tilingda bo'lsa ... (boling, noring, doring), kulib turar iqboling.

- Maqollarni izohlang.



Maqol – xalq hayotiy tajriba asosida yaratgan, ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora yoki gap. Uni o'z o'rnida qo'llash nutqni ta'sirli, jozibador qiladi.



6-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, hikmatli gaplarni ko'chiring.

1. Ona ... – oltin beshiging¹.
2. O'z ... – o'lan to'shagim.
3. Kishining o'zi yetmagan yerga ... yetar.
4. Til qalbning
5. Ona yerning ... ona sutidek aziz.
6. Yurtni dedim, ... kirdim.

Foydalanish uchun so'zlar: yurting, so'zi, uyim, yuzga, ko'zgusidir, tuprog'i.

- Yuqoridagi hikmatli gaplardan birini tanlang va uning ma'nosini 3–4 ta gap bilan izohlang.

